

5. Манджиева М.В (2018) Экко-пд-см и экко-тж-см на мясную и шерстную продуктивность баранчиков. Волгоград 2018 г Дисс. 122 ст.
6. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. – Москва, 1969 г, 256 с.
7. Xatamov, A., & Qozoqov, J. (2023). Qorako'l qo'ylari sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibiga probiotiklarning ta'siri. Chorvachilik Va Naslchilik Ishi Jurnal. 2023 Y. №03. 26-28 B.
8. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP //Conferencea. – 2022. – C. 127-131.
9. Xatamov A., Normuminova M. The effect of "barakat" fertilizer on the growth indicators of lambs and the milk production of children. ISSN: 2776-0979, In Volume 3, Issue 11 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Nov., 2022. PP. 1550-1553 <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NRKCT>
10. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – T. 10. – C. 130-132.

UO'K: 636.32/.38.084.1:591.111.05.

NASLLI QORAKO'L QO'ZILARI QONINING BIOKIMYOVIY TARKIBIGA PROBIOTIKLARNING TA'SIRI

A.X.Xatamov-q.x.f.d (PhD), katta ilmiy xodim,

J.B.Qozoqov-tayanch daktarant

Qorako'lchilik va cho'l ekologiyasi ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada naslli erkak qorako'l qo'zilarini oziqlantirishda probiotiklardan foydalanishning ahamiyati o'rni hamda qonining biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganish natijalari keltirilgan.

Kalit sozlar: qorako'l qo'zi, probiotik, qon, eritrosit, leykosit, gemoglobin, ozuqa.

Summary. This article presents the rule of the use probiotics in feeding of breeding male Cormarant lambs, as well as the results of the study of biochemical indicators of blood.

Key words: karakul lamb, probiotic, blood, erythrocyte, leukocyte, hemoglobin, feed.

Kirish. Qorako'lchilik chorvachilikning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib ozuqa bazasini asosiy qismi dag'al ozuqalardan iborat bo'ladi, ushbu ozuqalarning energetik qiymati past bo'lganligi uchun oziqlantirish ratsionlarning umumiy to'yimliliigi va biologik qiymatini oshirish maqsadida ozuqaviy qo'shimchalardan foydalanish muhim hisoblanadi. Dag'al ozuqalarning hazmlanishida katta qorin suyuqligi tarkibidagi tirik mavjudotlar ya'ni bakteriyalar muhim ro'l o'ynaydi. Ozuqalarning yaxshi hazmlanishi esa organizmning yaxshi o'sishi va rivojlanishi, mahsuldorlikning yuqori bo'lishi uchun asosiy manba hisoblanadi.

Olimlarning yozishicha eritrositlar organizm uchun ahamiyati katta hujayralardir chunki ular tarkibdagi gemogloblin kislorodni hamda aminokislatalarni biriktirib organizmning barcha organ va to'qimalariga tashib berish hamda karbonat angidridni va chiqindi moddalarni ayiruv organlariga yetkazib berish vazifasini bajaradi. Leykositlar organizmda asosiy himoya vazifasini bajaradi shulardan fagositoz-yod moddalarni yemirish, antitelalarni ishlab chiqarish va oqsil tabiatli toksinlarni chiqarib tashlash vazifalarini bajaradi [4].

Qon tarkibida glyukozaning normada bo'lishi hayvon organizmida moddalar almashinuvi me'yorda bo'lishini taminlaydi. Oqsillar miqdori hayvon organizmida ularning yoshiga, jinsiga, yilning fasliga qarab o'zgarib turadi. Oqsillar organizmda asosiy qurilish funksiyasini bajaradi [6].

Turli mamlakatlarda o'tkazilgan tajribalarda Baktovit (j-2) va baktovit probiyotigi qo'shilgan ozuqalarda fermentlanish jarayoni nazorat guruhiga nisbatan ancha tez boshlanishi, fermentatsiya davrida aminokislotalar miqdori 28% gacha oshishi va chiqindilarda to'yimli moddalar qoldiqlarining 4,5-5,5% ga kamayishi aniqlangan [1].

Tadqiqotlarda kavsh qaytaruvchi hayvonlarning oshqozonida ozuqaning hazm bo'lishida bakteriyalar muhim ro'l o'ynaydi ular selluloza (dag'al asosiy qismi), kraxmal monosaxaridlar, kislotalar (sut kislotasi va qahrobo, chumoli kislotalar) lipidlarni fermentativ parchalanishiga uchratadi va azotli birikmalar kanversiyasida ishtirok etadi [3].

Olimlar takidlashicha, tajribalarda o'sish bo'yicha nazorat guruhidan 24,8% 4 oylikka kelib 20,6% ga kuzatilgan. Qon tarkibidagi eritrositlar miqdori 4 oylikda nazorat guruhiga nisbatan 17% ga yuqori bo'lgan [2].

Probiotiklar hayvon organizmida oshqozon ichaklarda ovqat hazm qilish jarayonini yaxshilash bilan bir qatorda ularni har xil kasalliklardan himoya qilishi isbotlangan [7].

Qo'ylar uchun maxsus ishlab chiqarilgan yani eksudirlangan yem hamda probiotiklar qorako'l qo'ylariga berilganda qo'ylarning o'sish, rivojlanishiga va sovliqlarning sut mahsuldorligiga ijobiy ta'sirini ko'rsatgan [5, 8, 9].

Tadqiqotning maqsadi. Qorako'l qo'zilar qonining tarkibiy qismi bo'lgan eritrositlar, leykositlar, gemogloblin, umumiy oqsil va glyukozaning miqdoriy o'zgarishiga probiotiklarning ta'sirini aniqlashdan iborat.

Tadqiqot uslublari. Tadqiqotlar Samarqand viloyati Nurobot tumani "Saxoba Ota" MCHJ da amalga oshirildi. Tajriba va nazorat guruhlarini bir xil sharoitda saqlandi va oziqlantirildi. Tajriba guruhiga "Aktivil-3" probiotigi qo'llanmaga asosan bir kunda 300 gr/t miqdorda berildi.

Tajriba uchun 6 oylik erkak qo'zilardan 3 tadan ajratilib belgilangan tartibda probirkalarga 5 ml dan qon namunalari olindi. Qon namunalari eritrositlar, leykositlar Goryayev to'rida, gemoglobin Sally genametrda umumiy oqsil refraktometrda, glyukoza miqdori Glyukometr kabi zamonaviy uskunalarida, Samarqand veterinariya meditsinasi chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti "Hayvonlar ichki yuqumsiz kasalliklari" kafedrasida "Gemotologiya" laboratoriyasida o'rganildi.

Tajribadan olingan ma'lumotlar variatsion statistika usullarida qayta ishlendi. Bunda har bir belgining o'rtacha arifmetik ko'rsatkichi (X), uning xatosi (Sx), o'zgaruvchanlik koeffitsienti (Cv) va guruhlar o'rtasidagi farqning ishonchliligi (P) aniqlandi [10].

Tadqiqot natijalari. Tadqiqotda probiotik bilan oziqlantirilgan qo'zilar qonining shaklli elementlari hamda tarkibiy qismi o'rganildi va quyidagi 1-jadvalda bayon qilindi.

1-jadval

Qorako'l qo'zilar qonining biokimyoviy ko'rsatkichlari, n=3

Ko'rsatkichlar	O'lchov birliklari	Me'yor o'rtacha	Tajriba guruhi		Nazorat guruhi	
			X±Sx	Cv, %	X±Sx	Cv, %
Eritrosit	Mln/mkl	7,0-12,0	7,98±0,34*	7,39	7,36±0,29	6,9
Leykosit	Ming/mkl	6,0-14,0	8,9±0,5*	9,7	8,63±0,26	5,2
Gemoglobin	g/l	79-119	80±3,97*	8,1	74,3±1,76	4,1
Umimiy oqsil	g/l	65-76	67,6±0,87*	2,24	67,3±2,03	5,2
Glyukoza	Mmol/l	2,22-3,33	1,97±0,16*	14,2	1,96±0,15	7,65

Izoh: *P>0,95

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki "Aktivil-3" probiotogini qo'shimcha tarzda iste'mol qilgan qo'zilarda qon tarkibidagi shaklli elementlar va tarkibiy qismlar bo'yicha farqlanishlar kuzatildi. Eritrositlar soni bo'yicha 0,62 mln/mkl yani 8,4% ga, leykositlar soni bo'yicha 0,27 ming/mkl yani 3,1% ga, gemoglobin miqdori bo'yicha 5,7 g/l ga yani 7,4% ga ustunlik kuzatildi.

Organizmdagi o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlarining namoyon bo'lishida oqsil moddalar muhim rol o'ynaydi. Tajribalarda ratsioniga probiotik qo'shib berilgan qorako'l qo'ylar qoni tarkibidagi umumiy oqsil miqdori bo'yicha ustunlik qilib, 0,3 g/l ga (0,4%) ga yuqori bo'lgan.

Organizmdagi polisaxarid va disaxaridlar qonga glukoza shaklida so'riladi. Glyukoza qonning doimiy tarkibiy qismi hisoblanib, uning bir xilda saqlanishi hayvon organizming fiziologik holatini me'yorda bo'lishini taminlaydi. Tajribadagi va nazorat guruhidagi qo'ylar qoni tarkibida glukoza miqdori teng (1,96 Mmol/l) bo'lganligi aniqlandi.

Xulosa qilib aytganda "Aktivil-3" probiotigini istemol qilgan qo'zilar qoni tarkibdagi asosiy hayot uchun muhim bo'lgan biokimyoviy ko'rsatkichlari nazorat guruhidan yuqori bo'lganligini ko'rishimiz mumkin, bu esa probiotiklardan qo'ychilikda foydalanish yaxshi samara berishi ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Alizade Alibala, Yo'ldashev D Baktavit J va Baktovit probiotigi. Veterinariya meditsinasi .Toshkent 2021-y. №8. 29-32 bet.
2. Афсанасьева А.И, Сарычев В.А. Морфологический состав крови ягнят западно-сибирской мясной породы при применении пробиотика Ветом 4,24. Ветеринария и Зоотехния. Вестник Алтайского государственного аграрного университета. №9 98-102 ст
3. Bakirov.B, B.N Xayitov Mahsuldor sigirlarda katta qorin atsidiozining ertachi tashxisi, guruhli davolash va oldini olish choralari boyicha tavsiyalar. Toshkent-2022 y. 34 bet.
4. Eshimov D, Roziqulov R.F "Hayvonlar fiziologiyasi" amaliy laboratoriya mashg'ulotlari Toshkent "Ilm Ziya" nashriyoti 2012-y. 159 b.
5. Qozoqov, J., & Xatamov, A. (2023). Qorako'l qo'ylari sut mahsuldorligi va sutining kimyoviy tarkibiga probiotiklarning ta'siri. Chorvachilik Va Naslchilik Ishi Jurnal. 2023 Y. №03. 26-28 B.
6. Xasanov M. Hayvonlar biokimyosi. Toshkent. "O'zbekiston" 1996-y 477 b.
7. Xatamov A., Normuminova M., Qozoqov J. B. THE USE OF INNOVATIVE METHODS IN FEEDING KARAKUL SHEEP //Conferencea. – 2022. – C. 127-131.
8. Xatamov A., Normuminova M. The effect of "barakat" fertilizer on the growth indicators of lambs and the milk production of children. ISSN: 2776-0979, In Volume 3, Issue 11 of Web of Scientist: International Scientific Research Journal. Nov., 2022. PP. 1550-1553 <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/NRKCT>
9. Xatamov A., Qozoqov J. B. The Effect Of Probiotics On Dairy Products //Texas Journal of Agriculture and Biological Sciences. – 2022. – T. 10. – C. 130-132.
10. Плохинский Н.А. Руководство по биометрии для зоотехников. – Москва, 1969 г, 256 с.